



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th July, 2025

IJTIMOIIY TARMOQLARDA O‘ZBEK TILINING BUZILISHI: TAHDIDMI YOKI ZAMON TALABI

Adxamova Moxinabonu Bunyodbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich 101-guruh talabasi

Umarova O‘g‘iloy Normamat qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich 101-guruh talabasi

Qodamova Munisa Oybek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich 101-guruh talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining qo‘llanilishi, platformalarda til me‘yorlarining buzilishi va bu holatning ijobiy hamda salbiy jihatlarini tahlil qilinadi. Asosan, yoshlar orasida tarmoq orqali tilning zamonaviy shakllari, qisqartmalar, translit va aralash tillarda yozish holatlari ko‘paymoqda. Bu holat til taraqqiyotiga xizmat qiladimi yoki uning boyligiga putur yetkazadimi – maqolada ana shu savolga javob izlanadi va atroflicha muallif tamonidan bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tarmoq, o‘zbek tili, til buzilishi, zamonaviy aloqa, tarmoq madaniyati, til o‘zgarishi, translit, aralash til.

НАРУШЕНИЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ: УГРОЗА ИЛИ ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

Аннотация:

В данной статье анализируется использование узбекского языка в социальных сетях, нарушение языковых норм на платформах, а также положительные и отрицательные стороны этой ситуации. В частности, среди



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th July, 2025

молодежи все чаще встречаются современные формы языка, аббревиатуры, транслитерация, смешанное написание. Служит ли эта ситуация развитию языка или подрывает его богатство — статья стремится ответить на этот вопрос и подробно излагает его автор.

Ключевые слова: Социальные сети, узбекский язык, нарушение языка, современная коммуникация, сетевая культура, изменение языка, транслитерация, смешанный язык.

DISTURBANCE OF THE UZBEKISTAN LANGUAGE IN SOCIAL NETWORKS: A THREAT OR A DEMAND OF THE TIME

Annotation:

This article analyzes the use of the Uzbek language in social networks, the violation of language norms on platforms, and the positive and negative aspects of this situation. In particular, among young people, modern forms of the language, abbreviations, transliteration, and mixed language writing are increasing. Does this situation serve the development of the language or undermine its richness - the article seeks to answer this question and presents it in detail by the author.

Keywords: Social networks, Uzbek language, language disruption, modern communication, network culture, language change, transliteration, mixed language.

KIRISH

So‘nggi yillarda axborot texnologiyalari jadal rivojlanib, ijtimoiy tarmoqlar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Telegram, Instagram, Facebook, Tik Tok kabi platformalarda yuz minglab o‘zbek foydalanuvchilari o‘z fikrlarini ifoda etmoqda. Ammo bu virtual makonda tilga bo‘lgan munosabat ko‘p hollarda bepisandlik bilan kechmoqda. Xususan, adabiy til me‘yorlariga rioya qilinmayapti, so‘zlar ruscha, inglizcha yoki boshqa tillar bilan aralashtirib ishlatilmoqda, grammatik xatolar ko‘paymoqda. Bu holat o‘zbek tilining boyligi va sofliqini



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th July, 2025

saqlab qolishga tahdid solmoqda. Shu bilan birga, ba'zi mutaxassislar bu jarayonni tilning moslashuvi, ya'ni zamon talabi deb baholashmoqda. Ushbu maqolada aynan mana shu qarama-qarshi pozitsiyalar muhokama qilinadi. O'zbek tilida yozilayotgan postlar, izohlar va xabarlar ko'plab tahlillarda grammatik jihatdan noto'g'ri, mantiqsiz va stilistik xatolarga boy ekani aniqlanmoqda. Ommaviylik va tezkorlik tufayli foydalanuvchilar til me'yorlarini chetlab o'tishga odatlanib qolgan. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar — Telegram, Instagram, TikTok, Facebook, X (sobiq Twitter) va boshqa platformalar — foydalanuvchilar orasida eng ommaviy aloqa vositalariga aylangan. Ayniqsa, 14-30 yosh oralig'idagi yoshlar o'rtasida bu platformalar asosiy fikr almashish, axborot olish va o'zini ifoda etish maydoniga aylangan. Afsuski, bu jarayonda til — xususan, adabiy o'zbek tili — ko'plab o'zgarish va buzilishlarga duch kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda yozilayotgan matnlar ko'pincha grammatik qoidalariga zid bo'ladi. Jumladan ega va kesimning uyg'unligi buziladi, fe'llarning zamon shakllari noto'g'ri ishlatiladi. Misol uchun:

“Bugun maktabga boraman” o'rniga “bugun maktab boraman”;

“Kitob o'qiyman” o'rniga “kitob o'qiyman endi” kabi.

Bu kabi ifodalar nafaqat noto'g'ri tuzilgan, balki bolalar va yoshlar orasida yangi norma sifatida qabul qilinmoqda. Ko'pchilik foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoqlarda yozayotganda imlo va tinish belgilariga e'tibor bermaydi. Bu esa o'qilgan matnning tushunarlilikini pasaytiradi. Tinish belgilarining umuman ishlatilmasligi yoki noto'g'ri joylashtirilishi, so'zlar orasiga bo'shliq qo'yilmasligi yoki ortiqcha ishlatilishi (masalan, "salommmmm", "zorrrr", "haaaa") — bularning barchasi yozma nutq madaniyatiga ziyon yetkazmoqda. Tez yozish ehtiyoji va klaviatura qulayliklari (masalan, translitda yozish). Boshqa tillarning ta'siri: inglizcha va ruscha so'zlar qo'llanilishi. O'zbek tilida ba'zi zamonaviy tushunchalarga atamalar yetishmasligi. Yoshlar orasida moda bo'lib qolgan “mem” va aralash til. O'zbek tilining ijtimoiy tarmoqlarda tobora buzilayotgani oddiy xatolardan emas, balki chuqur ijtimoiy, madaniy, texnologik va psixologik sabablardan kelib chiqmoqda. Quyida ushbu jarayonning asosiy omillari yoritiladi: Bugungi kunda foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoqlarda qisqa va tez yozishga intilishadi. Global kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida til tizimida yuz berayotgan



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th July, 2025

o'zgarishlar lingvistik dinamikaning tabiiy bosqichi hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar kommunikatsiyaning yangi shaklini shakllantirar ekan, bu holat milliy tillar, jumladan o'zbek tili uchun ham muayyan ta'sir omiliga aylangan. Mazkur jarayon ijtimoiy lingvistika va zamonaviy mediatilshunoslik doirasida tahlil qilinmoqda. Sotsiolingvistik yondashuvlarga ko'ra, til doimo ijtimoiy vaziyat va kommunikatsiya sharoitiga moslashadi. Fishmanning ijtimoiy funksionalizm modeli tilning ijtimoiy muhitdagi rolini va uning moslashuvchanligini asoslaydi. Ushbu nuqtai nazarga binoan, til ijtimoiy tarmoqlarda o'z vazifalarini – muloqot, identifikatsiya, axborot uzatish – soddalashgan, norasmiy shakllar orqali amalga oshiradi. Natijada adabiy til qoidalaridan og'ishlar paydo bo'lishi tilning buzilishi emas, balki sotsiokommunikativ moslashuv jarayoni deb qaraladi. Normativistik yondashuv tilga qat'iy me'yoriy tizim sifatida qaraydi. Bu qarashga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarda tilning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik darajadagi og'ishlari adabiy tilning normativ maqomiga tahdid soladi. Tilning funksional uslublaridan biri sifatida rasmiy yozma nutq me'yorlarining buzilishi, ayniqsa yosh avlod orasida, tilning standartlashgan shakliga putur yetkazishi mumkin. Bu yondashuv Sapir-Whorf nazariyasiga asoslanib, til strukturasi bilan tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlaydi. Shunga ko'ra, tilning me'yorsizligi tafakkurning normativligini ham susaytiradi. Zamonaviy mediatilshunoslik kommunikatsiya muhiti o'zgarishi bilan til shakli, uslubi va funksiyasining o'zgarishini tan oladi. Bu yondashuv tilning buzilishi deb baholanishi mumkin bo'lgan holatlarni, aslida, til tizimining mediamuhitga moslashuvi sifatida izohlaydi. Xususan, internet-til, ijtimoiy tarmoq stili (network discourse), multimodal tilshunoslik kabi nazariyalar tilning yozma va og'zaki nutq oralig'ida joylashgan yangi ko'rinishlarini o'rganadi. Kognitiv yondashuv tilni inson tafakkuri va psixologik ehtiyojlari bilan bog'lab o'rganadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarda yuz berayotgan lingvistik o'zgarishlar muloqotning tezligi, soddaligi va emotsional ifodaning kuchayishiga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadi. Pragmatik yondashuv esa til birliklarining qo'llanishi vaziyatga qarab o'zgarishini e'tirof etadi. Demak, ijtimoiy tarmoqlardagi til — bu kontekstual pragmatika asosida shakllangan tildir. Milliy til siyosati nuqtai nazaridan, ijtimoiy tarmoqlarda tilning buzilishi davlat tilining maqomi va maqomiy barqarorligiga tahdid soladi. Normativ huquqiy hujjatlarda



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th July, 2025

davlat tili maqomi, uning rasmiy doiralarda, shuningdek ommaviy axborot vositalarida adabiy me'yorlarda qo'llanishi lozimligi ta'kidlanadi. Shu bois bu jarayon til madaniyati masalasi sifatida ham ko'riladi. Til madaniyati nazariyasiga ko'ra, tildan to'g'ri va estetik foydalanish ijtimoiy javobgarlik, estetik did va ma'naviy yuksaklikning ifodasidir.

Til kompetensiyasi — bu nafaqat til bilimi, balki uni kontekstga mos to'g'ri qo'llay olish qobiliyatidir. Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, bu lingvistik degradatsiyaga olib kelishi mumkin. Shuningdek, axboriy savodxonlik darajasining pastligi, shaxsning raqamli muhitda til vositalarini tanlash va ularni madaniyatga mos ravishda qo'llashda muammolar tug'diradi.

Grammatik tuzilmani soddalashtirish holatlariga olib kelmoqda. Masalan, "Salom, qalesiz? Yaxshimisiz?" degan ibora o'rniga "slm, qlsz, yaxshmsz" kabi yozuvlar ko'paygan. Bu tendensiya texnologik imkoniyatlar bilan bog'liq — mobil telefonlarda yozishda vaqt tejashga harakat qilinadi. Ammo bunday soddalashtirishlar til me'yorlariga zid bo'lib, yozma nutqni buzadi. Savodxonlik darajasining pasayishi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilar va talabalar orasida yozma savodxonlik darajasi pastligi ham muhim omildir. O'z fikrini adabiy tilda, to'g'ri yozma shaklda bayon qila olmaslik ijtimoiy tarmoqlarda ham aks etadi. Ko'plab foydalanuvchilar grammatik qoidalarga amal qilmasdan, og'zaki nutq shaklida yozishga o'rgangan. Yoshlar orasida "tarmoq bu rasmiy joy emas" degan qarash keng tarqalgan. Bu esa ularni yozuvda befarq bo'lishga, hatto xatolarni "hazil" yoki "ijodkorlik" sifatida qabul qilishga olib kelmoqda. Aslida esa, bu befarqlik asta-sekin tildagi muayyan buzilishlarning ommaviylashuviga sabab bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqda mashhur bloggerlar, TikTok yoki YouTube yulduzlari ko'pincha o'z postlarida yoki videolarida adabiy til me'yorlariga rioya qilmaydi. Ularning har bir so'zlari ko'plab yoshlar uchun "qonun"ga aylanadi. Shuning uchun noto'g'ri tilda gapirish yoki yozish zamonaviylik belgisi deb talqin qilinmoqda. Memlar, internet slenglari va hazil vositalari (masalan, "gap yo'q", "oxirgi daraja zor", "hammayam emas" kabi) tilda me'yoriy bo'lmagan yangi ifodalarni paydo qilmoqda. Ular qisqa, tez-tez ishlatiladigan va ko'pincha umumiy qoidalar asosida emas, balki kontekst asosida qo'llaniladi. Bu esa tilning aniqligi



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th July, 2025

va izchilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Til me'yorlarining buzilishi ijtimoiy tarmoqlarda tasodifan yuz berayotgan holat emas. Bu murakkab ijtimoiy va texnologik jarayonlar natijasidir. Tezkor yozish, boshqa tillar ta'siri, savodsizlik va beparvolik kabi omillar tilda izsiz o'zgarishlar yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ushbu jarayonlarni to'g'ri tushunish va unga qarshi ma'rifiy, madaniy chora-tadbirlar ko'rish zarur. Ko'plab foydalanuvchilar lotin yozuvida emas, balki rus tilidagi klaviatura orqali o'zbek so'zlarini yozib, translit usulida muloqot qilmoqda: "qalesan", "yaxshimisan", "boraman uyoqqa" kabi yozuvlar tildagi an'anaviy yozuvdan uzoqlashmoqda. Ba'zi tilshunoslar bu holatni tilning rivojlanish jarayoni sifatida baholaydi. Dunyo tillari ham ijtimoiy tarmoqlar sabab o'zgarishlarga uchramoqda. O'zbek tili ham yangi shakllarga ega bo'lishi mumkin, bu esa uni moslashuvchan qiladi. Ammo ko'plab mutaxassislar bu holatni tilni yo'qotishga olib boradigan xavfli tendensiya deb biladi. Ayniqsa, yoshlar orasida adabiy tilga bo'lgan qiziqish susaymoqda. Natijada yozma savodxonlik darajasi pasayadi, rasmiy hujjatlar va ilmiy ishlarda ham til xatolari uchraydi. Til me'yorlari bo'yicha ijtimoiy tarmoqlarda ko'proq targ'ibot ishlari olib borilishi kerak. Mashhur kontent yaratuvchilarga til bo'yicha qisqa o'quv kurslari tashkil etilishi. "Til madaniyati" haqida videoroliklar, postlar, "challenge"lar orqali targ'ibot. Yangi atamalar ishlab chiqish va ularni tarmoqlar orqali ommalashtirish. Zamon talabi sifatida baholanishi. Ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek tilining o'zgarishi ko'pchilik tomonidan xavf sifatida ko'rilsa-da, ba'zi tilshunoslar va zamonaviy kommunikatsiya mutaxassislari bu holatni tabiiy rivojlanish va zamon talabi sifatida baholashadi. Ularning fikricha, har bir til vaqt o'tishi bilan yangilanadi, soddalashadi va zamonaviy axborot texnologiyalariga moslashadi. Bu — tilning zaiflashuvi emas, balki moslashuvchanligining ifodasidir. Til — bu jonli tizim. U doimiy ravishda o'zgarib boradi, yangi so'zlar, ifodalar, uslublarni o'zlashtiradi. Masalan: Bugungi kunda kundalik hayotimizda "onlayn", "offlayn", "post", "like", "story", "kontent" kabi so'zlar umumiy foydalanishga kirib borgan. Ijtimoiy tarmoqlar orqali bu so'zlar ko'plab foydalanuvchilar og'zaki va yozma nutqiga qo'shib, tilda yangi ma'no qatlamlarini shakllantirmoqda. Bu holat o'zbek tilining boyishi emas, balki dunyodagi boshqa tillar bilan hamohang harakat qilayotganining belgisi sifatida ko'riladi. Zamonaviy yoshlar o'z fikrini tez, qisqa,



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th July, 2025

emotsional va ijtimoiy kontekstga mos ravishda bildirishga intiladi. Oldin yozma nutq rasmiy xatlar, maqolalar, asarlar orqali ifodalansa, hozirda yozma mulohazaning asosiy maydoni — ijtimoiy tarmoqlardir.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki Ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek tilining buzilishi – bu faqatgina xatolik emas, balki ijtimoiy-psixologik va madaniy muammo hamdir. Bu hodisa zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq bo'lsada, uning orqasida tilga bo'lgan e'tibor va hurmat darajasi yotadi. Ijtimoiy tarmoqlarda tezkor aloqa, ijodiy erkinlik bo'lishi tabiiy, ammo bu erkinlik tilni beparvolik bilan ishlatish uchun bahona bo'lib qolmasligi lozim. Davlat, jamiyat va har bir foydalanuvchi ushbu masalaga befarq bo'lmasligi zarur. Zero, til – millat ko'zgusidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch." T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Jo'raev O. "Til madaniyati va jamiyat." O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2021.
3. Qodirov M. "Ijtimoiy tarmoqlarda yozma nutq va savodxonlik." Filologiya fanlari nomzodi maqolalari to'plami, 2022.
4. www.ziynet.uz – Yoshlar ma'naviyati va til tarbiyasi bo'yicha materiallar.